

Kirish

Nemis tilini o`rganishga bo`lgan talab kundan kunga kuchayib borayotgani sabab, hozirda nemis tili bo`yicha kuchli va mukammal dasturlarni ishlab chiqish masalasi favqulotda muhim masalalardan biriga aylanib qoldi. Nemis tilini o`rganish va o`rgatish bo`yicha yaqin-yaqingacha ko`plab dasturlar hamda o`quv qo`llanmalari ishlab chiqildi.

Qo`lingizdagi ushbu mo`jazgina qo`llanma ham ushbu maqsadda ishlab chiqilgan dasturlardan biri hisoblanadi. Uni boshqa dasturlardan deyarli katta farqi yo`q, yagona ustunligi nemis tilini tezda o`rganish niyatida yurganlar uchun samaradorligi yuqori bo`lgan dastur, xolos.

Ushbu dasturni kimlarga maslahat beramiz? Ushbu dastur sizga nimani taqdim eta oladi?

Ushbu dastur tayyor assotsiatsiya qilingan 5000ta so`z va mustahkamlash uchun maxsus interaktiv mashqlardan iborat. Kitobni bir so`z bilan amaliy qo`llanma deb hisoblasa ham bo`laveradi.

Ushbu dasturni ishlashdan maqsad nima? Kuzatuvlarimiz shuni ko`rsatdiki, nemis tilidagi har qanday ko`nikmani oshirish uchun yangi so`zlarni yodlash juda ham katta rol o`ynaydi. Til o`rganuvchi o`rtacha 90% vaqtini so`z yodlashga ketkazadi. Nemis tilini to`liq o`rganib, imtihonlarda yuqori natija ko`rsatish uchun esa o`rtacha 5000ta so`z lug`at boyligi kerak bo`lar ekan. Ushbu dastur esa ushbu jarayonni tezlashtirishga yordam beradi. Misol, statistika bo`yicha o`quvchi 5000ta so`zni yodlab olishiga 1-2 yil vaqt ketkazadi. Ushbu dastur yordamida esa siz soatiga 100ta so`z yodlashingiz mumkin, bundan kelib chiqyaptiki atiga 1 oy ichida siz 5000ta so`zni yodlab bo`lasiz. Eng muhimi, so`z yodlash jarayonida diqqatni chetga qochirmaslik lozim.


O`quvchidan qat`iyat, yuqori darajadagi xotira hamda mnemonika haqida oz-moz bilim kerak bo`ladi, xolos. Agar ushbu sifatlar sizda bo`lsa hoziroq lug`at yodlash jarayoniga sho`ng`ib ketsangiz ham bo`laveradi. Mnemonikadan xabaringiz bo`lmasa, u holatda mnemonika mashqlarini bajarib, so`z yodlash bo`yicha oz-moz ko`nikma hosil qilishingiz lozim.

Dastur faqat soʻz boyligingizni oshirib berishga yordam beradi, grammatika va boshqa koʻnikmalar boʻyicha qoʻshimcha kitoblarni qoʻlga kiritishingiz kerak boʻladi. Ammo, shuni qoʻrqmasdan aytishimiz mumkinki, har qanday kitob bilan shugʻullanishni boshlagan vaqtingizda bu kitob oʻrganish jarayoningizni bir necha barobariga tezlattirib beradi.

Oʻqing, oʻrganing va lazzatlaning!

Xotira

Birinci bo`lib miyani ishlash tempini oz-moz o`rganib chiqamiz. Miyyamiz ikki qismdan iborat.



Chap va o`ng. Chap qism asosan mantiqqa, o`ng qism emotsiyalarga javob beradi.

Chap qism matnli xotira hisoblanadi: turli xil so`zlar, matnlar, raqamlar, faktlar, analizlar va h.k.

O`ng qism emotsional xotira hisoblanadi: beshta his tuyg`u – ko`rish, eshitish, hid sezish, ta`m bilish va taktil xotira.

Chap qism 10% eslab qolish potensialiga ega. O`ng qism 90% ma`lumotni saqlab qolish potensialiga ega.

Chunki, bir o`ylab ko`ring, siz tasavvurlar orqali o`ylaysizmi yoki miyyangizda matnlar paydo bo`ladimi? Albatta tasavvurlar.

Tasavvur – 80% eslab qolish kuchiga ega. Qolgan his-tuyg`ular qolgan 10% bo`lishib oladi.

Nega yoshlikda bog`cha bolalarini xotirasi kuchli bo`ladi, deymiz? Chunki ular matnli xotiraga o`tishmagan, ular barcha axborot tasavvuran eslab qolishadi. Miyyani o`rtasi, ya`ni bog`lab turuvchi torgina yo`lakcha Corpus callosum deb nomlanadi. Miyyani ikki qismini bog`lash eng qiyin ish. Agar ikki qismdan foydalanib eslab qolish ko`nikmasiga ega bo`lsak, biz istagan ma`lumotimizni 100% eslab qolishimiz mumkin. Biz hozir aynan o`sha uxlab chang bosib yotgan xotirani tiriltirishimiz kerak.

Boshida qiyin bo`ladi albatta. Lekin har qanday inson uddalay oladi. Insonning o`ng qismini tiriltirish va xotirasini kuchaytirish uchun maxsus fan mavjud – Mnemonika fani. Bu sohani ko`pchilik biladi chamamda. Televizorlarda ikkita yigitlar chiqib o`z xotirasining kuchlarini ko`rsatadi, bu narsa hech kimga sir emas. Biz xotiramizni tiriltirish uchun 1tagina mashqning o`zi yetarli.

Mnemonika tarixdan barchamizga ma`lum. O`z davrida Siseron mnemonika haqida ko`plab ishlarni yozib qoldirib ketgan. Qadimgi Yunonistonda Mnemonika Xudosi bo`lgan. U xotira mabudi bo`lgan va shu sabab bu fanni uning nomiga atashgan.

Endilikda sizga vazifa. Xotirangizni sinab ko`ramiz. Quyidagi 20ta so`zni yodlab, ketma-ket, bexato aytib ko`rishga harakat qiling.

1. Banan;
2. Ruchka;
3. O`rmon;
4. Muzlatgich;
5. Gilam;
6. Oshpaz;
7. Osmon;
8. Yog`;
9. Mashina;
10. Stadion;
11. Bodring;
12. Ayiq;
13. Bulut;
14. Qulupnay;
15. Kompyuter;
16. Non;
17. Maktab;
18. Televizor;
19. Piyoz;
20. O`rdak.

Ko`rib turibsiz, yodlab olish bilan bu ish juda qiyin. Ammo assosiasiyalar yordamida ularni yodlab olish juda oson. Shunchaki bitta so`zni keyingisiga ulab, hikoya tuzish kerak.

Miyamiz kichik-kichik neyronchalardan tashkil topgan. Ma`lumot miyyaga kelishi bilan neyronlar biri-biriga sinaps ya`ni bog`lovchilar orqali biri-biriga ma`lumotni uzatadi. Mnemonika aynan shunga asoslangan. Ya`ni birinchi axborotni ikkinchisi bilan bog`lash.

Hozir sizga qanday bog`laganimni ko`rsatib beraman. Banan ruchkada xat yozyapti, so`ng ruchka katta qilib ruchkani rasmini chizdi. O`rmon ichi muzlatgichlarga to`la. Muzlatgichni ochyapmiz ichi muzlab qolgan gilamlarga to`la. Gilamlarni qoqib tashlanganda, u yerdan juda ko`p oshpazlar yog`ilishni boshladi. Va birdan oshpazlar osmonga uchib chiqib ketib qoldi. So`ng osmonda ovqat pishirishgandi, yog`lar yerga tushib, mashinalarni bosib qola boshladi. So`ng mashinalar qayerga qochishini bilmay, stadionga yopirilib kirib keta boshlashdi. O`sha paytda stadionda bodringlar ayiqlarga qarshi futbol o`ynashayotgandi. Birdan ayiqlarning ostidan bulutlar paydo bo`lib osmonga uchirib keta boshlashdi. Ayiqlar u yerda qulupnay topib olib, qulupnay yeya boshlashdi. Qulupnaylar kompyuter o`ynab o`tirishgandi. Kompyuter ichida bo`lsa katta nonni rasmi bor edi. Birdan o`sha nonlarni maktablarga tarqata boshlashdi. Maktablar televizorda ko`rsatila boshlandi. Televizorni ko`rganlar, televizorga piyozlar ota boshlashdi. Piyoz televizorga tegishi bilan ichidan o`rdaklar otilib chiqa boshlashdi.

Ma`lumotlarni ulashni o`rgandik. Endi mustaqil ravishda o`zingiz shug`ullanib ko`rishingiz lozim. Demak, yana amaliyot. Men sizga yana 20ta so`z beraman. Siz shoshilmasdan ularni ulab ko`rasiz.

1. Telefon;
2. Qovun;
3. Uy;
4. Quyon;
5. Olma;
6. Mars sayyorasi;
7. Tog`;
8. Robot;
9. Ko`zoynak;
10. Uzum;
11. Oyna;
12. Kondisioner;
13. Bo`ri;
14. Yo`lbars;
15. Tuxum;

16. Yer;
17. Dala;
18. Poyezd;
19. Qalam;
20. Limon.

Muhim qoidalar:

1. Obrazlaringizni iloji boricha jonlantiring va katta hajmlarda tasavvur qiling;
2. Obrazlar harakatga kelsin;
3. Assosiatsiyalar fantastik va kulguli bo`lsin.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Telefon;
2. Qovun;
3. Uy;
4. Quyon;
5. Olma;
6. Mars sayyorasi;
7. Tog`;
8. Robot;
9. Ko`zoynak;
10. Uzum;
11. Oyna;
12. Kondisioner;
13. Bo`ri;
14. Yo`lbars;
15. Tuxum;
16. Yer;
17. Dala;
18. Poyezd;
19. Qalam;
20. Limon.
21. Banan;
22. Ruchka;
23. O`rmon;
24. Muzlatgich;
25. Gilam;
26. Oshpaz;
27. Osmon;
28. Yog`;
29. Mashina;
30. Stadion;

31. Bodring;
32. Ayiq;
33. Bulut;
34. Qulupnay;
35. Kompyuter;
36. Non;
37. Maktab;
38. Televizor;
39. Piyoz;
40. O`rdak.

30ta so`z:

1. O`rik;
2. Sandiq;
3. Kosmonavt;
4. Tog`;
5. Poyezd;
6. Sigit;
7. Kalamush;
8. Ko`zoynak;
9. Qulupnay;
10. Televizor;
11. Raqamlar;
12. Shaftoli;
13. Rasm;
14. Baraban;
15. Stul;
16. Mars;
17. Xurmo;
18. Bozor;
19. Gullar;
20. Matematika;
21. Qatiq;
22. Yilpig`ich;
23. Ko`ylak;
24. Yulduzlar;
25. Samolyot;
26. Director;
27. Kasalxona;
28. Piyola;
29. Limon;
30. Musiqa.

40ta so`z:

1. Muzlatgich;
2. Mushuk;
3. Shox;
4. Kolbasa;
5. Nemis;
6. Qasr;
7. Tez yordam;
8. Otlar;
9. Televizor;
10. Soqol;
11. Tilla tish;
12. Telefon trubkasi;
13. Diplomat;
14. O`g`ri;
15. Mo`ylab;
16. Aktrisa;
17. Mashina;
18. Chamadon;
19. Daryo;
20. Vaqt mashinasi;
21. Jinnixona;
22. Militsiya;
23. Eshik;
24. Ananas;
25. Multfilm;
26. Lift;
27. Qovurilgan baliq;
28. Cherkov;
29. Askarlar;
30. Kamalak;
31. Nayzalar;
32. Stakan;
33. Gilam;
34. Taxt;
35. Shahar;
36. Bo`ri;
37. Magazin;
38. Taqinchoqlar;
39. Tish doktori;
40. Kreslo.

50ta so`z:

1. Gips;
2. Kema;
3. Shlyapa;
4. Pistolet;
5. Pul;
6. Palto;
7. Bolg`a;
8. Qo`l;
9. Olma;
10. Restoran;
11. Osmon;
12. Qushlar;
13. Fil;
14. Sahro;
15. Cho`chqa;
16. Sharbat;
17. Banan;
18. Dollar;
19. Yo`lbars;
20. Hakker;
21. Kitob;
22. O`qituvchi;
23. Temir;
24. Palov;
25. Bedana;
26. Choyxona;
27. Texnologiya;
28. Kutubxona;
29. Orol;
30. Kosmos;
31. Miya;
32. Non;
33. Kalamush;
34. Pishloq;
35. Fotoapparat;
36. Ko`prik;
37. Til;
38. Qizlar;
39. Kabutar;
40. Gitara;
41. Universitet;
42. Pomidor;

43. Jarlik;
44. Eshak;
45. Devor;
46. Soch;
47. Qabr;
48. Yurak;
49. Dev;
50. Skripka.

Soʻz yodlash jarayoni bir necha qadamlardan iborat:

- 1) Avvalo, biz chet tilidagi soʻzni oʻzbek tilidagi biron soʻzga oʻxshatib olishimiz lozim. Misol uchun, “Herz” soʻzi, bu nemis tilidan tarjimada “yurak” degani. Endi “herz” soʻzi qaysi oʻzbekcha soʻzga oʻxshaydi, misol “Xoʻroz” soʻziga oʻxshatishimiz mumkin. Bu nima uchun kerak? Bizning miyamiz shunday tuzilganki, biron yangi maʼlumotni eslab qolish uchun, avvalo u eski maʼlumot bilan birikishi lozim. Agar sizda u haqidagi eski maʼlumot mavjud boʻlmasa, miyamiz buni tushunmaydi. Misol uchun, limon soʻzini aytsam, siz tasavvur qila olasiz, shunday emasmi? Sababi, siz limonni koʻrgansiz, hatto-ki yeb koʻrgansiz, u haqida miyada maʼlum bir maʼlumotlar qolib ketgan. Ana endi Bengal yongʻogʻi desamchi? Sizda biron fantaziya paydo boʻldimi? Siz oddiy yongʻoqni tasavvur qilasiz yoki umuman tasavvur paydo boʻlmaydi. Sabab? Chunki, siz oldin bu soʻzga duch kelmagansiz, sizda eski maʼlumot yoʻq, shu sabab yangi maʼlumot qoʻshila olmadi. Chet tilidagi soʻzlar bilan ham xuddi shu holat. Yaʼni chet tilidagi soʻzlar bizning miyamiz uchun yangilik va uni eslab qolishi uchun u eski maʼlumotga tayanishi kerak. Yaxshilab eʼtibor bersangiz, standard uslubda yodlagan vaqtingizda, faqatgina oldin eshitgan, biron filmda koʻrib qolgan yoki koʻp takrorlangan soʻzlaringiz yodingizda qoladi. Shunday ekan, bu miyamizning tabiiy jarayoni hisoblanadi. Biz esa bunga yordam berib yuboramiz. Demak, bizdagi eski maʼlumot – bu biz biladigan oʻzbek yoki boshqa tildagi soʻz hisoblanadi, shu bois biz chet tilidagi soʻzni oʻzimiz bilgan biron soʻzga oʻxshatib olamiz. Buni biz assosiasiya deb ataymiz;
- 2) Tayyor boʻlgan assosiasiyani tarjima bilan birlashtiramiz. Misol uchun, “Herz” “Xoʻroz”ga oʻxshatgandik. Endi tarjima yaʼni “yurakni” olamiz, sevib qolgan xoʻrozni yuragini tasavvur qiling;
- 3) Assosiasiya tayyor boʻlgan boʻlsa, 3 marta nemis tilidan oʻzbek tiliga, 3 marta oʻzbek tilidan nemis tiliga tarjima qilib qaytarasiz;
- 4) Yana bir muhim qoida, bittada beshtadan ortiq soʻz yodlamang. Yaʼni 10 – 20talab soʻz yodlamang. Bizning miyamiz bittada 5tdan ortiq maʼlumotni ushlab tura olmaydi. Avval, beshta soʻzni assosiasiya qilib olamiz, soʻng ularni 3 martadan tarjima qilamiz, soʻng keyingi beshta soʻzga oʻtamiz, ana shunda zoʻriqish ham, charchash ham boʻlmaydi;
- 5) 96 soat qoidasi. Har bir yodlagan soʻzingizni 4 kundan soʻng bir marta qaytarib chiqing. Bu nega kerak? Bizning miyamiz yangi olingan maʼlumotni 4 kun davomida oʻzida ushlab turadi, agar u qayta ishlatilmasa, uni chetga chiqarib yuboradi. Shu bois, 4chi kuni soʻzlarni bir marta qaytarib chiqing, ana shunda soʻzlar bir umrga yodingizda qoladi. Misol, bugun 200ta soʻz yodladingiz va bugun dushanba, payshanba kuni shu 200tani qaytarib chiqasiz;

6) Shahar metodi. O`zingiz yaxshi bilgan bitta shaharni tanlab olasiz. U shaharni butunlay bo`shatib tashlaysiz, ya`ni odamlarni shahardan olib tashlaysiz, albatta tasavvuringizda! So`ng, har bir yasagan assosiasiyangizni shahar bo`ylab joylashtirib chiqasiz. Misol uchun, sevib qolgan xo`rozning yuragini oshxonangizga qo`yib qo`yasiz. Avvalo o`z uyingizdan boshlang, so`ng sekin boshqa joylarga qo`yib chiqishni boshlang. Bu nega kerak? Bu uslub yordamida, siz yasagan assosiasiyalar havoda uchib yurmaydi, ularning aniq bir makoni bo`ladi, makon bo`lgach, siz hatto-ki turgan joyigacha aytib bera olishingiz mumkin.

DAS WILLKOMM



SALOMLASHISH

1. Hallo! [xalyo:] – Assalom! (Xolva) Siz Germaniyada barchaga Assalom deb xolva tarqatmoqdasiz;
2. Hallo! [xalyo:] – Assalomu aleykum! O'xshash so'zlar;
3. Guten Morgen! [gu:tn morgn] – hayrli tong: (Buta Murda) Buta murdaga xayrli tong deb uni uyg'otib rossa kaltak yedi;
4. Guten Tag! [gu:tn tak] – hayrli kun:(Buta Tok) Qizil butani tok urib kechqurun hayrli kun deb raqsga tushib yuribdi;
5. Guten Abend! [gu:tn abnt] – hayrli kech: (Buta abed) Buta hammaga hayrli kech deb o'zini obed qilib o'tiribdi;
6. Grüßen [gryu:sen] – ko'rishmoq: (Go'yo sen) Ko'chada qatga borsangiz go'yo sen ko'rinmas odamsan deb ko'chadagi hamma odamlar ko'rishib ketishmoqda;
7. Gruß [gru:s] – salomlashish: (Kukuruz) Kukuruz salomlashishni bilmay yengi odamlarni ko'rsa hayrlashib ketyapti;
8. Begrüßen [begryusen] – qutlamoq: (Begi yuvsin) G'ilay Begi mashina olganini yuvsin deb uni hamma shalabbo qilib bo'ktirdi;
9. Wie geht's? [vi ge:t es] – ishlar qanday? (Vegiteryan) Hamma qo'zichoqlar vegiteryan bo'ri bilan ishlar qanday deb so'rashib ketishyapti;
10. Was gibt es Neues? [vas gipt es noyes] – qanday yangiliklar? (Vals gips eslamoq) Siz gips qo'lingizda valsqa tushmoqdasiz va gipsdan oldin qanday yangiliklar bo'lganini eslamoqdasiz;
11. Auf Wiedersehen! [auf vi:derze:en] – ko'rishguncha: (Aft yedirsin) Aft mandarin yeginucha mandarin uni yeb qo'ydi;
12. Bis bald! [bis balt] – tez orada ko'rishguncha: (Biz Bo'lt) Tez orada ko'rishguncha deb bolt biz bilan ko'rishmay hafa bo'lib ketdi deb toshbaqa yig'lab o'tirdi;
13. Lebe wohl! [le:be vol] – Hayr: (Lab devol) Semiz lab hammaga hayr deb boshini devolga urib oldi;
14. Leben Sie wohl! [le:ben zi:vol] – xayr (hurmat bilan): (Labin Devol) Siz xurmat bilan xayr deb devolni labingiz bilan o'pib qo'ydingiz;
15. Sich verabschieden [zix ferapshi:den] – xayrlashmoq: (Zax farishta din) Siz zaxda o'tirib diningizni almashtirganingiz uchun farishtalar siz bilan xayrlashmoqdalar;
16. Tschüs! [chyus] – xayr: (Chust) Chust viloyatidagilar hayr deyishni o'rniga shapaloq solishadi;
17. Danke! [danke] – rahmat: (Tanka) Axmoq talabatanka topganiga rahmat etish bilan qarib qoldi;

18. Dankeschön! [danke shyon] – katta rahmat: (Tanka shon) Tanka shon-shuxratga erishib talabalarga katta rahmat dedi;
19. Bitte! [bite] – iltimos: (Bitta) Bitta iltimos deb ezma do'stingiz sizni joningizga tegib ketdi;
20. Keine Ursache! [kayne u:zaxe] – minnatdorchilik shart emas: (Ko'ylak uzoq) Sariq ko'ylak yirtiq shimga minnatdorchilik shart emas deb uzoq rahmat aytib uni bezor qildi;
21. Nichts zu danken! [nixts tsu danken] – arzimaydi: (Narx Suv Damkom) Siz damkomdan arzimaydigan narxga suv oldingiz;
22. Entschuldige! [entshuldige] – uzur: (Endi tushundik) Siz Germaniyadan kelgan mehmonlarga uzur degan so'zni o'rgatsangiz ular sizga endi tushundik deb javob qaytarishdi;

MASHQ



Quyidagi so'zlar va ularning ikkinchi qismini moslang.

Nichts zu	-schön
keine	danken
Leben Sie	Ursache
Was gibt es	Abend
Guten	Neues?
Danke	wohl

MASHQ



Quyidagi salomlashishlarning nemis tilidagi tarjimasini yozing.

1. Assalomu aleykum - _____
2. Hayrli tong - _____
3. Hayrli tun - _____
4. Hayrli kech - _____
5. Hayrli kun - _____
6. Ishlar qalay? - _____
7. Salom! - _____

MASHQ



Quyidagi dialoglarni to'ldiring.

1. A: Es war sehr nett von Ihnen. Dankeschön!
B: 1) B_____. oder 2) N_____. oder 3) K_____
 2. A: es ist Zeit, sich zu _____.
B: Ja, wie Schade. Leben Sie _____.
 3. A: Bis Bald Anna!
B: T_____, Katya!
-
23. Entschuldigung! [entshuldiguni] – kechiring: (endi tushundim) Oldingizga bir qiz kelib endi tushundim kechiring deyabdi;
 24. Entschuldigen [entshuldigen] – kechirmoq: (endi tushundingmi) Siz o'sha qizga endi tushundingmi deb kechirib yubordingiz;
 25. Sich entschuldigen [zix entshuldigen] – kechirim so'ramoq: (Zax endi tushundi) Yoningizga zax kelib u ham endi tushundim deb yeg'lamoqda;
 26. Verzeihung! [fertsayunn] – mening uzurim: (fartuk yo') Siz hammaga mening uzurim fartukim yo'qligi deyabdi;
 27. Entschuldigung! [entshuldigunn] – kechiring: (endi tushundim) Oldingizga bir qiz kelib endi tushundim kechiring deyabdi;
 28. Verzeihen [fertsayen] – kechirmoq: (petsavet) Tasavvur qling, siz dushmanlaringizni hammaning oldida petsavetda kechirmoqdasiz;
 29. Das macht nichts! [das maxt nixts] – qo'rqinchilik joyi yo'q: (Dars Mix Naqt) Siz darsda naqt pulga qoqishning qo'rqinchilik joyi yo'q demoqdasiz;
 30. Nicht vergessen! [nixt fergesen] – esdan chiqarmang: (Naqt Fergusun) Sizga Fergusun naqt pulni esdan chiqarmang deb aytmoqda;
 31. Natürlich! [natyurlix] – albatta: (Natural) Natural mevalar albatta foydali deb o'ylab qurtlar unga hujum qilishdi;
 32. Natürlich nicht! [natyurlix nixt] – albatta yo'q: (Natural noxot) Sizdan natural noxot bormi deb so'rashganida siz albatta yo'q deb javob berdingiz;
 33. Gut! Okay! [gu:t okey] – roziman:
 34. Es ist genug! [es ist ganuk] – yetarli: (Eski Is Xunuk) Eski islarni yetarlicha qoldirish bu xunuk ish;

MASHQ



Quyidagi gaplarni to'ldiring.

1. Ich bin sehr müde. Es ist _____ mit mir.
 2. E_____, können Sie mir die Bank zeigen.
 3. Du muss sich ent_____. Gleichzeitig muss sie auch dich ent_____.
 4. V_____ng, ich bin nicht absichtlich.
 5. A: Liebst du Anna? B: N_____ nicht.
 6. _____, jeder braucht Geld.
-
35. Wer? [ve:r] – kim? (Ber) Kaktus suv ber deb ho'jayiniga tikonlar otdi;
 36. Was? [vas] – nima? (Vaz) Eski vaz21 nima endi modadan qoldim deb o'zini operatsiya qildirib kaptivaga aylandi;
 37. Wo? [vo:] – qayerda? (Voy) Tasavvur qiling, Voy qayerda banan bor deb dovdur maymun maktabda yugurib yuribdi;
 38. Wohin? [vo:xin] – qayerga? (Voha) Voha qayerga qochini bilmay Toshkentni vohaga aylantirdi;
 39. Woher? [vo:xe:r] – qayerdan? (Moxir) Tasavvur qiling, Tentak Moxir qayerdan pul olishini bilmay ko'chada arabcha raqsga tushdi;
 40. Wann? [van] – qachon? (Vandam) Vandam qachon qarasa hammani karate qilib tashlaydi;
 41. Wozu? [vo:tsu] – nima sababdan? (Voy suv) Voy suv nima sababdan kam qolmadi deb ochofat baliq okeanda janjal ko'tardi;
 42. Warum? [varum] – nimaga? (Forum) Nimaga siz pomidorlar forumiga bormadingiz?
 43. Wofür? [vo:fyu:r] – nima uchun? (Vafli) Nima uchun siz 1 korobka vafli yeb qo'ydingiz;
 44. Wie? [vi:] – qanday? (Vilka) Siz qanday qilib vilka yordamida sho'rva ichmoqdasiz;
 45. Welcher? [velxe] – qanaqa?, qanday? (Velik) Siz qanaqa rusumli velik uchmoqdasiz;
 46. Wem? [ve:m] – kimga? (Fen) Siz kimga fen sovg'a qildingiz;

47. Über wen? [yu:be ve:n] – kim to'g'risida? (Yuvib Fen) Kim to'g'risida fenni yuvib beribdi deb gaplashmoqdasizlar?
48. Wovon? [vo:fon] – nima to'g'risida? (Vafli) Siz vafli yeb nima to'g'risida suhbatlashmoqdasiz?
49. Mit wem? [mit ve:m] – kim bilan? (Mitti Vena) Siz kimbilan mitti venangini almashdingiz?
50. Wie viele? [vi: fi:le] – qancha? (sanaladiganlar): (Vilka file) Siz qancha sanaladigan filelarni vilka yordamida bo'lib tashladingiz?
51. Wie viel? [vi: fi:l] – qancha? (sanalmaydiganlarga): (Vilka fil) Siz filga vilka yordamida qancha sanalmaydigan sutlar berdingiz?
52. Wessen? [vesn] – kimniki? (Vazn) Kimning vazni og'irroq o'ynamoqdasiz;

MASHQ



Quyida tushurib qoldirilgan so'roq so'zlarni topib yozing.

- 1.A: _____ Buch liest du?
 B: das Buch von Marks.
 A: _____ ist das?
 B: Vom Kapitalismus.
 A: Wie viele Seite ist dieses Buch?
 B: 200.
 A: _____ wirst du das beenden?
 B: Nächste Woche.
 A: Gut. Und _____ machst du denn?
 B: Ich habe vor, ein biographisches Buch zu lesen.
 A: _____?
 B: über Lenin.
 A: Wa_____ liest du zu viel?
 B: Es ist sehr interessant und vernünftig.
2. _____ besprechen Sie ihre Pläne?
 B: mit meinen Eltern.
3. _____ ist schuldig dafür?
 B: ich.
- 4.A: _____ hast du dein Heft gegeben?
 B: meinem Klassenkameraden.
- 5.A: W_____ hast du im Frühling gefahren.
 B: nach Moskau.
- 6.A: _____ geht es dir?
 B: Danke. Es geht mir sehr gut.



PRONOMEN

OLMOSHLAR

1. Ich [ix] – men: (Mix) Mix kim chiroyli desa "Men Men Men " deb baqirib hammani kar qildi;
2. Du [du] – sen: (Dum) Tasavvur qiling, Sen yomonsan deb tulkini dumi o'zini uryapti;
3. Er [er] – u (erkak kishiga nisbatan): (Er) Erkak kishini nemislar yaxshi er deb chaqirishadi;
4. Sie [zi:] – u (ayol kishiga nisbatan): (Sim) Tasavvur qiling, kal qushlar simni u ayol kishi deb chaqirishadi;
5. Es [es] – bu, shu (narsani takidlash uchun ishlatiladi): (Pes) Pes bo'lgan kalamush bu yomon emas deb hammaga tarqatib yuribdi;
6. Wir [vi:r] – biz: (Vir) Vir va Zaradagi Vir biz bilan ishlaydi deb tentak bola gapirib yuribdi;
7. Ihr [i:r] – siz: (Kir) Siz loyga tushib kir bo'lib sasib kettingiz;
8. Sie [zi:] – siz (hurmatni bildiradi): (Sim) Siz hurmat bilan simni uzatib yuboring dedingiz;
9. Sie [zi:] – ular: (Zil) Zil-zambil oq tog'orani sizga ular ya'ni toshbaqalar ko'tartirib qo'yishdi;
10. Mit [mit] – bilan, -ila: (Bit) G'ilak bit bilan ko'r it bir-biri bilan urishishyapti;
11. Ohne [o:ne] – yo'qlik, -siz, be-: (Ona) Shallaqi yetim bola onasiz o'sgani uchun hammani urib yuradi;
12. Nach [na:x] – ish-, -ga, -ka, -qa (harakatning biror narsa ga, narsa ichga): (Naqt) Toshbaqa ish haqiga naqt pul beringlar deb do'konda to'polon qilyapti;
13. Über [yu:be] – -ga (qo'shimcha vazifasida keladi, nimadur to'g'risida gapirish): (Yuv Ber) Tasavvur qiling, muzlatkichga qarab kirlarimni yuvib ber deb yalinib turibsiz;
14. Vor [fo:r] – oldidan, ro'parasidan: (Ford) Qizil Ford ro'parasidan chiqqan hamma mashinani ustidan kulib tilini chiqarib ketyapti;
15. Vor [fo:r] – old (biror hodisa): (Ford) Qop-qora Ford Eski kaptivani old tomoniga turib olib u bilan urishyapti;
16. Unter [unte] – tagi: (Unut ey) Unutdim ey deyish tagida jazodan qochish turadi;
17. Über [yu:be] – ustida: (Yuv ber) Muzlatkich ustida o'tirb kirlarimmi yuv ber deb tepib tashladingiz;
18. Auf [auf] – -ga, ustiga (narsalar qo'yiladigan, o'rnatiladigan sirt, yuza bildiradi): (Aft) Chayon aftiga hamma narsalarni bejab yalmog'izga aylandi;

19. Aus [aus] – mas (biror narsa ichidan tashqariga yo'nalganligini anglatadi):
(Maus) Mikki Maus hammaga sichqonmas ayiqman deb kulguga qoldi;
20. In [in] – -dan (vaqtlarga): (In) Ayyor qush in qurib sotib undan ko'p pul ishlab oldi;
21. Über [yu:be] – orqali, bilan: (Yuvib ber) Bir qari kampirni tasavvur qiling, sizga bir Nestle shokoladi orqali barcha kiyimlaringizni yuvib bermoqda;

MASHQ



Yuqorida o'rgangan so'zlaringiz asosida quyidagi mashqlarni bajaring.

1. ____ mache Hausaufgaben.
2. Kamola ist Studentin. ____ studiert an der Universität für Weltwirtschaft und Diplomatie.
3. ____ arbeitet als Arzt.
4. Arbeitest ____ in der Fabrik?
5. Freunde, das sehr schwere Aufgabe. ____ müsst vorsichtig sein!
6. Wo wohnen ____?
7. Ich und Karin sind echte Freunde. ____ spielen immer miteinander.
8. Diese Studenten studieren sehr gut. Wir sind stolz auf ____.
9. Paul ist mein bester Freund. Jeden mache ich meine Hausaufgaben ____ ihm.
10. A: Entschuldigung! Wie kann ich das Hotel „International“ finden?
B: gehen Sie _____ diese Brücke. Dann rechts.
11. A: Wo hast du deine Ferien verbracht?
B: Ich war in Deutschland und Österreich. Und Du? Möchtest du mir etwas über deine Ferien erzählen.
A: Ich bin mit meinen Eltern ____ Russland gefahren. Und ____ Russland haben wir _____ die Krim gereist.
12. A: Wo wohnst du?
B: Ich wohne ____ der Friedrichstraße. Vor meinem Hause liegt ein Hotel. Es ist leicht das zu finden.
13. Obwohl es sehr kalt ist, geht er _____ Mantel.
14. Das Bild hängt _____ dem Sofa.
15. Was verstehst du _____ diesem Ausdruck?

22. Hier [xi:e] – bu yerda: (Xina) Sassi q xina Toshkentga kelib bu yerda hech kim e'zozlanmadi deb Hindistonga qochib ketdi;
23. Dort [dort] – u yerda: (Dori) Tentak xotin do'konga kirib u yerda dori yo'qligiga hayron bo'lib o'tiribdi;
24. Nirgends [nirgents] – hech qayerda: (Negr) Negr hech qayerda banan topa olmay Afrikaga qaytib ketdi;
25. An [an] – oldida: (Man) Uzun ilon kalta toshbaqa bilan eski mashinada man oldida o'tiraman deb bir-biri bilan talashyapti;
26. Hierher [xi:rx:e:r] – bu yerda: (Har-hil) Faraz qiling, bu yerda har-hil taomlar bor ekan deb to'yda ovqatlarni yeb tashlayapsiz;
27. Dahin [daxin] – bu yoqqa: (Dohin) Qari dohin bu yoqqa kel deb baqirmoqda;
28. Von hier [fon xi:e] – shu yerdan: (Fonar Xira) Maqtanchoq sotuvchi eski xira fonar faqat shu yerda bor deb maqtandi;
29. Von da [fon da:] – u yoqda: (Xonda) Tasavvur qiling, Yaponiyadagi yashil xonda Fransiyaga ketib u yoqda meni tanishmadi deb yeg'lab keldi;
30. Nah [na:] – yaqin: (Nam) Ikkichi bola maktabga yaqin qolganda shimi nam bo'lganini bilib uyiga qaytib ketdi;
31. Weit [vayt] – olisda: (Vaqt) Tasavvur qiling, sizdan olisda bo'lgan kal do'stingizni vaqti to'xtab qolgan;
32. In der Nähe von ... [in de ne:e fon] – oldida, atrofida: (Indamas Pol) Indamas pol atrofida hamma yeg'lib uni yulduzga aylantirishdi;
33. Link [link] – chap: (Link) Kompyuterning chap tarafida hamma linklar turadi;
34. Recht [reht] – o'ng: (Reka) Tasavvur qiling, uyingizni o'ng tarafiga qiyshiq reka qoqib qo'yganingiz uchun rossa kaltaklashdi;
35. Vorne [forne] – oldinda: (Forma) Jigarrang forma sayr qilib, oldinda qari eshshakni ko'rib uyiga qaytib ketdi;
36. Hinten [xinten] – orqada: (Xina Ten) Faraz qiling, lo'lilar xina qo'yib ten surishda amerikaliklardan orqada qolishdi;
37. Rückwärts [ryukverts] – orqaga: (Ryukzak) Eski ryukzak orqaga osilib sizni bukr qilmoqchi bo'ldi;
38. Mitte [mite] – o'rta: (Mitti) Mitti sichqon katta qasr o'rtasini teshib qo'ydi;
39. Seitlich [zaytlih] – yonida: (Zayd Lak) Sochi uzun Zayd yonida turgan hamma odamlar tirnog'iga lak surib chiqdi;
40. Überall [yu:be al] – hamma joyda: (Yubiley) 100 yildan beri yashayotgan chol kampirni hamma yoqda yubileyi nishonlanmoqda;

41. Ringsherum [rinnsxerum] – atrofida: (Rim Sxema) Rim atrofida hamma talabalar mayda sxema chizib o'tirishibdi;
42. Von innen [fon inen] – ichida: (Xoyin) Tasavvur qiling , Xoyin ichida ham xoyin qurtlar yashaydi;
43. Irgendwohin [irgentvo:xin] – qayerga-dur: (Irgan Voha) Irgan meva qayergadur ketishim kerak deb vohadan qochib ketyapti;
44. Geradeaus [gera:deaus] – to'ppa-to'g'ri: (Geradot) Geradot to'ppa-to'g'ri kitobdan chiqib ikkichi tarixni yaxshi o'qi deb boshingizga kitob bilan uryapti;
45. Zurück [tsuryuk] – orqaga: (Surduk) Tasavvur qiling, qalin surduk orqaga o'tib olib hammani palto bilan g'iybat qilyapti;
46. Irgendwoher [irgentvoxe:] – qayerdan-dur: (Irgan Voha) Irgan pomidor qayerdan-dur voha tarafdin yangi bodiringni o'ziga do'st qilib oldi;

MASHQ



Quyidagi gaplarni to'ldiring.

1. A: Ist er _____?
B: Nein. Er ist noch nicht _____ vom Urlaub.
2. Kannst du mir das Buch übergeben? Das liegt _____ auf dem Tisch.
3. In der _____ von der Universität befindet sich ein Cafe.
4. A: Wie kann ich ins Kino gehen?
B: Gehen Sie zuerst ger_____ und dann nach rechts.
5. Müller ist sehr schlechter Mensch. Er hat schon zweimal das Gefängnis von in____ gesehen.
6. Der Lehrer: Tursunov, schnell _____ die Tafel!
7. In der M_____ des Tages ging es ihm sehr schlecht.
8. General dem Soldaten: Komm nach v_____!
9. A: Wie w_____ wollen Sie uns geleiten?
10. Ich werde es nicht dah_____ kommen lassen!
B: Bis zum Ende.

MASHQ



Quyidagilarning qaysi biri bilan *irgend* qo'shib so'zlar hosil qilsa bo'ladi?
Ularning ma'nosini ham yozing.

wohin, überall, woher, wo, wann, hinten

1. _____ - _____

2. _____ - _____

3. _____ - _____

4. _____ - _____

MASHQ



Quyidagi tomonlarni belgilang.

↖ - _____

↗ - _____

MASHQ



Quyidagi so'zlar oxrini moslab chiqing.

1. rings	a) da
2. rück	b) -herum
3. von	c) -all
4. hier	d) -lich
5. über	e) -her
6. seit	f) hier
7. von	g) -wärts

47. Plötzlich [plyotslih] – to'satdan: (Pult Six) To'satdan ochofat pul sixlarni olib kabob pishirishga tushib ketdi;
48. Zuerst [tsuerst] – dastavval: (Suarest) Tasavvur qiling, dastavval Suares keyin Messi avtogo'l urishyapti;
49. Zum ersten Mal [tsum ersten ma:l] – ilk bor: (Tushum Erishdim Mol) Ilk bor ozg'in mol narsa sotib tushum olishga erishdim deb hangrayapti;
50. Lange vor ... [lanne for] – ancha oldin: (Lagan Fara) Qizil katta lagan ancha oldin oldi farasini kuydirib qo'ydi;

51. Von Anfang an [fon anfann an] – boshqatdan: (Fon Anor Non) Tasavvur qiling, Ko'cha foni anor va non rasmini boshqatan chizila deb harhasha qildi;
52. Für immer [fyu:r ime] – butunlay: (Fil Yur Imo) Qari fil yosh bo'riga yur imoga kiramiz deb butunlay esini yeb qo'ydi;
53. Nie [ni] – hech qachon: (Nina) Nina hech qachon ip bilan do'st bo'lmaganman deb undan qochib ketdi;
54. Wieder [vi:de] – yana: (Villa) Katta villa yana meni buzishar ekan deb o'zi chirib buzulib ketdi;
55. Jetzt [yetst] – hozir: (Yertiq) Yertiq shim hozir mo'da bo'lib ketdim deb hammaga maqtandi;
56. Oft [oft] – tez-tez: (Kofta) Oq kofta tez-tez kir bo'lgani uchun hamma uni kir kofta deb chaqiryapti;
57. Damals [da:ma:ls] – u mahalda: (Damas) Yangi qora damas peshin mahalda uxlab qolib eskirib sarg'ayib ketdi;
58. Dringend [drinntent] – tezda: (Drill Kent) Qiyshiq drill kent sigareti chakishga o'rganib qolib tezda gadoyga aylandi;
59. Gewöhnlich [gevyo:nlih] – odatga ko'ra: (Giyohvandlik) AQSHda giyohvandlik odatga ko'ra qilinadi;
60. Übrigens, ... [yu:brigens] – o'z vaqtida: (Yuriy gaz) Yuriy Gagarin gazni o'chirmagani uchun oyni yo'q qilib yubordi;
61. Möglicherweise [myoklixevayze] – extimol, mumkin: (Mo'ylovli vaza) Mo'ylovli vaza yosharib qolarman deb mo'ylovini olib yuzini kesib oldi;
62. Wahrscheinlich [va:rshaynlih] – balki, aftidan: (Varshavalik) Varshavalik yulduz aftidan oddiy odamga o'xshaydi;
63. Außerdem ... [auserdem] – buning usitga ...: (Amsterdam) Amsterdam chiroyli va buning ustiga zamonaviy shahar;
64. Deshalb ... [desxalp] – shu sababdan ...: (Dev Xarf) Axmoq dev xarf o'rgandi va shu sababdan dahoga aylanib qoldi;
65. Trotz ... [trots] – qaramay ...: (Tros) Xunuk tros temir bo'lishiga qaramay oltinni yaxshi ko'rib qoldi;
66. Dank ... [dank] – tufayli ...: (Tank) Katta sariq tank tufayli hamma chumolilar qasri buzulib ketdi;

MASHQ



Quyidagi gaplarga mos so'zni topib qo'ying.

1. Seine Mutter war wieder gesund, _____ war er _____ glücklich.
a) dank/wieder b) deshalb/wieder c) nie/wieder d) trotz/wieder
2. _____ seiner Begabung erreicht er das, was er will.
a) dank b) deshalb c) nie d) trotz
3. _____ starker Schmerzen arbeitet er weiter.
a) dank b) deshalb c) nie d) trotz
4. Besser spät als _____ (Sprichwort)
a) dank b) deshalb c) nie d) trotz
5. Ich liebe dich ___ immer!
a) für b) oft c) plötzlich d) gewöhnlich
6. A: Wie ___ telefonierst du mit deinen Eltern?
B: _____, 3 Male pro Woche
a) für/ oft b) oft/ plötzlich c) plötzlich/ gewöhnlich d) oft /gewöhnlich
7. Eine plötzliche Nachricht schockiert alle.
a) zuerst b) möglicherweise c) plötzliche d) gewöhnliche
8. _____ müssen wir das Projekt _____ schnell verwirklichen.
_____ soll es perfekt sein.
a) zuerst/ möglicherweise/ außerdem b) möglicherweise/ zuerst/ oft c)
außerdem/zuerst /plötzlich d) gewöhnlich/ gewöhnlich/ außerdem
9. _____ ist niemand zu Hause.
a) für b) dank c) trotz d) wahrscheinlich

MASHQ



Quyidagi so'zlarning o'zbekcha tarjimasini aniqlang.

1. Zum ersten Mal
2. lange vor
3. von Anfang an
4. Damals
5. Dringend
6. Übrigens

a) ancha avval
b) birinchi marta
c) avval boshdan
d) tezda
e) o'z vaqtida
f) o'shanda

67. Was [vas] – bu: (Mast) Mast kishi o'zini oynada ko'rib bu kim deb o'zi bilan gaplashib o'tirdi;
68. So [zo:] – shunday qilib: (Zol) Katta zol shunday qilib zamonaviy bo'yoqlar bilan bo'yanib oldi;
69. Auch [aux] – hamda: (Ah) Eshshak hamda xo'roz ah ah deb muzqaymoq yeb tomog'i og'rib qoldi;
70. Ebenfalls [e:benfals] – ham: (Elak falsafa) Elak falsafani ham elaklab tashladi;
71. Und [unt] – va: (Unut) Unut va esla deb hammaga maslahat berib chiqypsiz;
72. Oder [o:de] – yoki: (O'rdak) Axmoq o'rdak yoki tovuq oyog'ingizni cho'qib cho'loq qilishdi;
73. Aber [a:be] – ammo: (Obed) Tasavvur qiling, obed qilaman deb tushlik qilib uxlab qoldingiz;
74. Für [fyu:r] – uchun: (Yur) Cho'loq quyonga yurish uchun hasa olib kelishdi;
75. Zu [tsu:] – juda: (Suv) Sho'r suv juda toza bo'lib ketib hammani kasal qildi;
76. Nur [nu:r] – faqat, atigi: (Nur) Lampochka faqat nur mendan chiqadi deb quyoshni ko'rib qizarib ketdi;
77. Genau [genau] – aynan: (Kenayi) Toshsiz toshbaqa o'ziga aynan qora tipratikonni kenayi qilib oldi;
78. Ungefähr [ungefe:r] – taxminan: (Unga ber) Taxminan tilanchiga 100 dollar ber;
79. Fast [fast] – deyarli: (Fast-fud) Fast-fud deyarli hammani baqaloqqa aylantirdi;
